

TARIXIY ILDIZLARDAN GLOBALLASHUVGACHA: TURKIY XALQLAR O'RTASIDAGI TIL VA MADANIYAT UYG'UNLIGI

*Avazbekova Barchinoy Baxodirjon qizi,
Maxammatjonova Zebo Ma'rufjon qizi,
Qo'qon universiteti Andijon filiali talabalari
barchinoy0726@gmail.com
muhammadjanovazebochehra@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv sharoitida Turkologiya sohasining rivojlanish tendensiyalari, turkiy xalqlar o'rtasidagi madaniyatlararo aloqalarning o'ziga xos jihatlari va lingvokulturologiya fanining ahamiyati tahlil qilinadi. Turk xalqlari o'rtasida Madaniyat va tilning o'zaro ta'siri yoritilib, globallashuv jarayonida yuzaga kelayotgan imkoniyatlar va muammolar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, turli madaniyatlar o'rtasidagi aloqa orqali turkiy xalqlarning milliy o'zligini saqlab qolish va rivojlantirishning dolzarb masalalari ham o'rganiladi.

Kalit so'zlar. Turkologiya, globallashuv, madaniyatlararo aloqa, lingvokulturologiya, til va madaniyat birligi, turkologiya, turkiy xalqlar, madaniy meros, milliy qadriyatlar, til siyosati, global madaniyat, identitet, madaniyatlararo dialog, raqamli ta'lim, transmilliy madaniyat, yoshlar va madaniyatlararomuloqot.

TARIXSEL KÖKLERDEN KÜRESELLEŞMEYE: TÜRK HALKLARI ARASINDA DİL VE KÜLTÜREL UYUM

*Avazbekova Barchinoy Bakhodirjon kızı,
Makhammatjonova Zebo Marufjon kizi,
Kokand Üniversitesi Andijan Şubesi*

Özet. Bu makalede küreselleşme bağlamında Türkoloji alanının gelişim eğilimleri, Türk halkları arasındaki kültürlerarası temasların özel yönleri ve dil-kültür biliminin önemi ele alınmaktadır. Türk halkları arasında kültür ve dil etkileşimi vurgulanacak, küreselleşme sürecinin ortaya çıkardığı fırsatlar ve zorluklar incelenecektir. Ayrıca farklı kültürler arasındaki temaslar aracılığıyla Türk halklarının ulusal kimliğinin korunması ve geliştirilmesi konusundaki güncel sorunları da incelemektedir.

Anahtar Sözcükler. Türkoloji, küreselleşme, kültürlerarası iletişim, dil-kültür bilimi, dil ve kültür birliği, Türkoloji, Türk halkları, kültürel miras, milli değerler, dil politikası, küresel kültür, kimlik, kültürlerarası diyalog, dijital eğitim, ulusötesi kültür, gençlik ve kültürlerarası iletişim.

ОТ ИСТОРИЧЕСКИХ КОРНЕЙ ДО ГЛОБАЛИЗАЦИИ: СОВМЕЩНОСТЬ ЯЗЫКА И КУЛЬТУРЫ СРЕДИ ТУРЕЦКИХ НАРОДОВ

*Авазбекова Барчиной Бахадиржоновна,
Махамматжанова Зебо Маъруфжоновна,
Студентки Андиганский филиал Кокандского университета,*

Аннотация. В данной статье анализируются тенденции развития тюркологии в условиях глобализации, особенности межкультурных связей между тюркскими народами и значение лингвокультурологии как науки. Освещается взаимное влияние культуры и языка среди тюркских народов, рассматриваются возможности и проблемы, возникающие в процессе глобализации. Кроме того, исследуются актуальные вопросы сохранения и развития национальной самобытности тюркских народов через взаимодействие различных культур.

Ключевые слова. Глобализация, межкультурная коммуникация, лингвокультурология, единство языка и культуры, тюркология, тюркские народы, культурное наследие, национальные ценности, языковая политика, глобальная культура, идентичность, межкультурный диалог, цифровое образование, транснациональная культура, молодежь и межкультурная коммуникация.

FROM HISTORICAL ROOTS TO GLOBALIZATION: THE HARMONY OF LANGUAGE AND CULTURE AMONG TURKIC PEOPLES

**Avazbekova Barchinoy Baxodirjon qizi,
Maxammatjonova Zebo Ma'ruffjon qizi,**
Students of the Andijan branch of Kokand university,

Annotation. This article analyzes the development trends of Turkology in the context of globalization, the unique aspects of intercultural relations among Turkic peoples, and the significance of the science of linguoculturology. It highlights the mutual influence of culture and language among Turkic nations and examines the opportunities and challenges emerging in the process of globalization. Additionally, the article explores the pressing issues of preserving and promoting the national identity of Turkic peoples through intercultural communication.

Keywords. Turkology, globalization, intercultural communication, linguoculturology, unity of language and culture, Turkic peoples, cultural heritage, national values, language policy, global culture, identity, intercultural dialogue, digital education, transnational culture, youth and intercultural communication.

Turk xalqlari qadimdan geografik va madaniy jihatdan keng hududlarda xususan, Sharqiy Osiyo, Markaziy Osiyo, Kichik Osiyo va hatto Sharqiy Yevropagacha tarqalgan. Ularning madaniyatlararo aloqalari asosan ko'chmanchilik madaniyati, savdo yo'llari, diplomatik va harbiy faoliyat orqali rivojlangan. Miloddan avvalgi I ming yillik oxiri va milodiy I ming yillik boshlarida shakllangan qadimgi turkiy qabila ittifoqlari – Xunlar, keyinchalik Gokturk (Turk) xoqonligi — Sharqiy Osiyo va Markaziy Osiyo madaniy hayotiga chuqur ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, Gokturk xoqonligi davrida (VI-VIII asrlar) turkiy xalqlar o'rtasida yagona siyosiy va madaniy makon shakllangan, bu esa til va madaniyatda o'zaro ta'sirni kuchaytirgan. Orxun-Enasoy bitiklari (VIII asr) – o'z davrida turkiy xalqlarning mustahkam madaniyatlararo aloqalarini ko'rsatadigan muhim tarixiy yodgorliklardan hisoblanadi. Ushbu bitiklar umumturkiy til va madaniyatni birlashtirishga xizmat qilgan bo'lib, dunyoqarash va siyosiy qadriyatlarni umumlashtirgan. Keyinchalik, IX-XIII asrlarda Qoraxoniylar, Saljuqiylar kabi davlatlar tarkibida turkiy xalqlar islom madaniyati bilan tanishib, arab va fors madaniyati aloqalarini mustahkamlashgan. Bu jarayonda turkiy xalqlar madaniyatida diniy va ilmiy taraqqiyot kuchaydi, arab-fors tilidan ko'plab ilmiy va madaniy atamalar o'zlashtirildi. XIII-XIV asrlarda Oltin O'rda, Chig'atoy ulusi va boshqa turkiy davlatlar orqali Yevropa va Osiyo madaniyatlari o'rtasidagi vositachi sifatida turkiy xalqlar madaniyatlararo aloqaning rivojlanishiga xizmat qildilar. Ayniqsa, Buyuk Ipak yo'li orqali amalga oshirilgan savdo va madaniy almashinuvlar bu jarayonda muhim o'rin tutgan. Turk xalqlarining madaniyatlararo aloqasi boyish, moslashish va o'zaro ta'siri asosida asrlar davomida rivojlanib, ular har bir tarixiy davrida boshqa xalqlar bilan diniy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan muloqotga kirishib, o'z milliy xususiyatlarini saqlab qolishga va boyitishga muvaffaq bo'lganlar.

Bugungi globallashuv davrida turkiy xalqlar o'rtasidagi madaniyatlararo aloqalar yangi bosqichga ko'tarildi. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida mustaqil turkiy davlatlarning vujudga kelishi (O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Ozarbayjon kabi) o'zaro siyosiy, madaniy va ilmiy aloqalarning faollashuviga asos yaratdi. 1992-yilda tashkil etilgan **Turk Kengashi** (hozirgi nomi – **Turkiy davlatlar tashkiloti**) turkiy xalqlarning o'zaro hamkorligini mustahkamlash, umumiy tarixiy va madaniy merosni saqlash va rivojlantirishda muhim rol

o'ynayapti. Ushbu tashkilot doirasida madaniyat, ta'lim, ilm-fan va san'at sohalarida ko'plab qo'shma dasturlar amalga oshirilmoqda. Madaniyatlararo almashinuvning muhim shakllaridan biri sifatida har yili o'tkaziladigan "Turk dunyosi madaniy festivallari", "Turkvision" qo'shiq tanlovi va Turkiy xalqlar adabiyoti forumi kabi tadbirlar alohida e'tiborga loyiqdir. Ushbu tadbirlar turkiy xalqlarning o'ziga xos milliy san'ati, adabiyoti va madaniy an'analarini butun dunyoga tanitish va ularni mustahkamlash uchun katta ahamiyatga ega. Ular, shuningdek, turkiy xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlash va o'zaro tushunishni rivojlantirishga yordam beradi. Har bir tadbir o'zining maxsus yo'nalishida, turkiy xalqlarning boy merosini dunyo hamjamiyatiga etkazish va yangi avlodlar uchun madaniy ko'priklar yaratishda muhim rol o'ynaydi. Bunday tashabbuslar, turli xalqlarni birlashtiruvchi umumiy madaniy maydonni shakllantirishga xizmat qiladi. Ta'kidlab o'tish kerakki, zamonaviy ta'lim sohasida ham turkiy xalqlar o'rtasidagi hamkorlik kengaymoqda. Xo'ja Ahmad Yassaviy nomidagi xalqaro universitet (Turkiston, Qozog'iston) va boshqa turkiy davlatlar universitetlari o'rtasidagi qo'shma ta'lim dasturlari madaniyatlararo muloqotni chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda. Turkiy tillarni o'rganish va o'rgatishga qaratilgan dasturlar orqali esa til va madaniyat o'zaro uyg'unlashmoqda. Texnologik taraqqiyot va raqamli platformalar ham turkiy xalqlar o'rtasidagi madaniy va ilmiy almashinuvni yengillashtirmoqda. Masofadan turib o'tkaziladigan konferensiyalar, madaniy seminarlar va xalqaro vebinarlar orqali zamonaviy turkiy xalqlar bir-biri bilan faol muloqot qilmoqda. Umuman olganda, zamonaviy davrda turkiy xalqlarning madaniyatlararo aloqalari tarixiy ildizlarga tayangan holda, yangi shakllarda va zamonaviy texnologiyalar asosida keng qamrovli rivojlanmoqda. Bu esa umumturkiy madaniy makonning mustahkamlanishiga va global madaniy muloqotda faol ishtirok etishiga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, turkiy xalqlarning madaniyatlari bilan birga ularning o'zaro til-madaniyat aloqalari ham yillar davomida rivojlanib kelgan va hali ham rivojlanib kelmoqda. Bunday aloqalarni o'rganuvchi fan sohasi Lingvokulturologiya bo'lib u tilni faqat aloqa vositasi sifatida emas, balki xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va madaniy tafakkurining ifodasi sifatida talqin etadi. Bu soha til va madaniyatning ajralmas birligi, ularning bir-biriga qanday ta'sir ko'rsatishi hamda bu jarayon natijasida vujudga keladigan lingvokulturologik hodisalarni tahlil qilish bilan shug'ullanadi. Har bir xalqning tili uning tarixiy tajribasi, urf-odatlarini, diniy qarashlari va kundalik hayotini o'zida aks ettiradi. Shu bois, til va madaniyat bir butun tizim sifatida rivojlanadi. Misol qilib keltiradigan bo'lsak, o'zbek tilida ishlatiladigan "Aql kuchdan qudratliroq" degan naql ham xalqning aqliy fazilatlariga, bilimiga bo'lgan yuksak e'tiborini ko'rsatadi. Shuningdek, turk tilida mashhur bo'lgan "Söz, insanın aynasıdır" (So'z – insonning oynasi) maqoli ham insonning ichki dunyosi va til o'rtasidagi bog'liqlikni ta'kidlaydi. Bu kabi maqollar xalqning axloqiy qadriyatlarini va munosabatlarini aks ettiradi. Bu kabi iboralar millat ruhiyatini, insonlararo munosabatdagi qadriyatlarni aks ettiradi. Va yana bir "Dil, kültürün evidir" (Til madaniyatning uyidir) degan naql mavjud bo'lib, u til va madaniyat o'zaro uzviy bog'liqligini chuqur ifodalaydi. Shuningdek, qadimgi turkiy yozuvlardan biri – Orxun Enasoy bitiklarida ham madaniy qadriyatlar va tarixiy xotiraning tilda qanday mujassamlanganini ko'rish mumkin. Zamonaviy misollardan biri sifatida ingliz tilida ta'lim olayotgan yoshlarning madaniy kontekstni o'rganmasdan faqat grammatikani bilishi ularning to'laqonli muloqotda qiynalishiga sabab bo'lmoqda. Tilni mukammal o'rganish uchun shu tilda so'zlashuvchi xalqning madaniy qadriyatlari, urf-odatlarini va tafakkur tarzini ham tushunish zarur. Bugungi globallashuv davrida til va madaniyatning ajralmasligini saqlab qolish uchun ko'plab turkiy davlatlarda milliy tillarni rivojlantirish, xalq og'zaki ijodi namunalarini asrash va madaniyatni keng targ'ib qilish bo'yicha loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, O'zbekistonda "Milliy Qadriyatlar – Millat Iftixori" dasturi, Qozog'istonda "Ruhani jangiru" dasturi orqali til va madaniyatni birgalikda rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shunday qilib, lingvokulturologiya tilni madaniy boylik sifatida o'rganish, madaniyat va til uyg'unligini saqlash va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Til va madaniyatning birligi xalq identitetini mustahkamlaydi va madaniy merosni kelajak avlodlarga yetkazishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Globallashuvning madaniyatlararo aloqa va tilga ta'siri. globallashuv jarayoni insoniyat tarixida madaniy almashinuv va til o'zgarishining eng jadallashgan bosqichlaridan birini yuzaga keltirdi. Transport, axborot texnologiyalari va iqtisodiy integratsiya rivojlanishi natijasida xalqlar va madaniyatlar o'rtasidagi chegaralar tobora o'chib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, madaniyatlararo aloqalarning intensivlashuvi va tillarning bir-biriga ta'sir qilishiga olib keldi.

Tilga ta'siri: Globallashuv til siyosati va tilshunoslikda jiddiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Dunyo miqyosida ingliz tilining global til sifatida tarqalishi natijasida ko'plab tillar ingliz tilidan so'zlar va atamalar olmoqda. Masalan, o'zbek tilida keng tarqalgan "reklama", "brend", "internet", "kompyuter" kabi so'zlar ingliz tilidan to'g'ridan-to'g'ri yoki adaptatsiya qilingan holda kirib kelgan. Biroq bu jarayon faqatgina ingliz tili bilan cheklanmaydi. Turkiy tillarda ham o'zaro ta'sirlar kuchaymoqda. Masalan, o'zbek tiliga ozarbayjon, qozog'iston va turk tillaridan madaniy va ilmiy sohada ko'plab termin va iboralar kirib kelmoqda. O'zbek tilida "xalqaro hamkorlik", "madaniyatlararo muloqot" kabi iboralar ko'pincha xalqaro va turk tillari ta'siri ostida shakllangan.

Madaniyatlararo aloqalarga ta'siri: Globallashuv madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni yangi bosqichga olib chiqdi. Internet va ommaviy axborot vositalari orqali turli xalqlarning urf-odatlar, san'ati va qadriyatlari tezkor almashmoqda. Masalan, butun dunyoda koreys pop madaniyati (K-pop) va turk seriallari keng tarqalib, boshqa millatlarning yoshlariga madaniy ta'sir ko'rsatmoqda. Turkiy xalqlar nuqtai nazaridan qaraganda, globallashuv ularning o'zaro madaniy integratsiyasini ham kuchaytirdi. Turk, ozarbayjon va o'zbek musiqachilarining qo'shma loyihalari, xalqaro kinofestivallar va adabiy anjumanlar orqali turkiy xalqlar bir-birining madaniyatini yanada yaqinroq o'rganmoqda. Bunga yaqqol misol qilib O'zbekiston poytaxti Toshkentda V Xalqaro Turk Dunyosi Bilim va Madaniyat festivali o'tkazilganini ta'kidlash mumkin. Shuningdek, Turkiyada o'zbek, qirg'iz va qozog'istonlik talabalarning soni ortib, madaniyatlararo almashinuvni kuchaytirmoqda.

Ijobiy va salbiy tomonlar: Globallashuv madaniyatlararo muloqotni osonlashtirgan bo'lsa-da, ayrim milliy tillar va madaniy identitetlar yo'qolish xavfi ostida qolmoqda. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, har ikki haftada dunyoda bir til yo'qolmoqda. Turkiy tillarda ham, ayniqsa kichik etnik guruhlar (masalan, qaraqalpoq, tatar, uyg'ur tillari) orasida tilni saqlab qolish masalasi dolzarb bo'lib bormoqda.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, turkiy xalqlarning madaniyatlararo aloqalari va til-madaniyat birligi hozirgi xalqaro uyg'unlashuv davrida dolzarb masala sifatida namoyon bo'lmoqda. Tarixan shakllangan o'zaro madaniy, iqtisodiy va siyosiy aloqalar zamonaviy davrda texnologik imkoniyatlar yordamida yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Shu bilan birga, global jarayonlar ayrim milliy qadriyatlarning susayishiga, tillarning o'zligini yo'qotish xavfiga ham sabab bo'lishi mumkin. Shu bois, turkiy xalqlar madaniy merosini saqlash, tillarni rivojlantirish va madaniyatlararo muloqotni mustahkamlash borasida faol harakat qilmoqda. Madaniyatlararo aloqa va lingvokulturologiya nuqtayi nazaridan olib qaralganda, turkiy xalqlarning o'zaro til va madaniyat o'xshashliklari ularga global maydonda ham o'zligini saqlagan holda, integratsiyalashish imkoniyatini beradi. Bu esa ta'lim, ilmiy tadqiqotlar, diplomatik aloqalar va ommaviy axborot vositalari orqali yanada rivojlantirilishi lozim.

Ushbu jarayonni muvaffaqiyatli olib borish uchun qator amaliy tavsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Turkiy tillar o'rtasidagi tarjima ishlarini kengaytirish va madaniy almashuvni kuchaytirish,
2. Lingvokulturologik tadqiqotlar va ilmiy hamkorlikni rag'batlantirish,
3. Madaniyat va til diplomatiyasini faollashtirish, madaniy tadbirlar va ko'rgazmalarni ko'paytirish,
4. Turkiy tillarda onlayn ta'lim platformalari va raqamlashtirilgan madaniy bazalarni rivojlantirish
5. Yosh avlodlar o'rtasida madaniy muloqotni kuchaytirish orqali kelajakda yanada barqaror aloqalarni mustahkam qilib ta'minlash.

Kelajakda turkiy xalqlar o'z milliy madaniy va til xususiyatlarini saqlagan holda, globallashuv jarayonlarida faol va samarali ishtirok etishi uchun bu tavsiyalar asosida keng ko'lamli ishlar olib borilishi lozim. Shunda milliy madaniyat va tillar global madaniy boylik sifatida yanada mustahkam o'rin egallaydi va turkiy xalqlar o'rtasidagi o'zaro madaniy va tarixiy aloqalar rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vorobyev V.V. Lingvokulturologiya asoslari (rus tilida).
2. Vereshchagin E.M., Kostomarov V.G. Til va madaniyat (lingvokulturologik yondashuv asoschilari).
3. E.T.Hall. Madaniyatlararo aloqa: yashirin o'lchovlar (Intercultural Communication: Hidden Dimensions).
4. Hofstede G. Madaniyat va tashkilotlar (Culture and Organizations).
5. Abdurahmonov A.A. Turkiy xalqlarning tarixiy madaniy aloqalari (O'zbek olimi tomonidan).
6. Turksoy va Turkpa kabi tashkilotlarning rasmiy <https://www.turksoy.org/>